

KELAJAK SOATLARINING VARIATIV KOMPONENTLARINI POLIPARADIGMAL YONDASHUV ASOSIDA DIDAKTIK TA'MINOTINI TAKOMILLASHTIRISHDA KLASTER METODIDAN FOYDALANISH

Salomov G'ulom Yuldoshevich

**Termiz iqtisodiyot va servis universiteti dotsenti,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).**

gulom_salomov@tues.uz. Tel: + 998996779488

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19642545>

Annotatsiya: Mazkur maqolada kelajak soatlarining variativ komponentlarini poliparadigmal yondashuv asosida takomillashtirish masalasi bayon qilingan. Klaster metodining didaktik imkoniyatlari tahlil qilinib, uning umumta'lim maktablari o'quvchilarining kreativ, tanqidiy va tizimli fikrlashini rivojlantirishdagi o'rni asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari klaster metodidan foydalanish ta'lim samaradorligini oshirishi uchun muhim omil ekanligini ko'rsatadi.

Аннотация. В данной статье рассматривается вопрос совершенствования вариативных компонентов занятий будущего на основе полипарадигмального подхода. Проанализированы дидактические возможности кластерного метода и обоснована его роль в развитии креативного, критического и системного мышления учащихся общеобразовательных школ. Результаты исследования показывают, что использование кластерного метода является важным фактором повышения эффективности образования.

Abstract. This article discusses the issue of improving the variable components of future-oriented classes based on a polyparadigmatic approach. The didactic potential of the cluster method is analyzed, and its role in developing creative, critical, and systematic thinking among secondary school students is substantiated. The research results show that the use of the cluster method is an important factor in increasing the effectiveness of education.

Kalit so'zlar: poliparadigmal yondashuv, variativ komponent, klaster metodi, didaktik ta'minot, kompetensiya, kreativ fikrlash, innovatsion texnologiyalar.

Ключевые слова: полипарадигмальный подход, вариативный компонент, кластерный метод, дидактическое обеспечение, компетенция, креативное мышление, инновационные технологии

Keywords: polyparadigmatic approach, variable component, cluster method, didactic support, competence, creative thinking, innovative technologies.

KIRISH

Bugungi kunda ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar umumta'lim maktablari o'quvchilarining har tomonlama rivojlanishini ta'minlashga qaratilmoqda. Ayniqsa, invariant kelajak soatlarida umumta'lim maktablari o'quvchilari ongida tarbiyaning variativ komponentlarini tarkib toptirish o'quvchilarining qiziqishlari va individual ehtiyojlariga mos ravishda shakllantiriladi.

Yosh avlod tarbiyasi haqida gapirilganda O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning "Biz ta'lim-tarbiya tizimlarining barcha bo'g'inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o'zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz" ["Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz" nomli asarida bunday deyiladi:] degan fikrlarini keltirishni joiz deb topdik.

Darhaqiqat, Abdurauf Fitrat bobomizning mana bu fikrlariga har birimiz, ayniqsa, endi hayotga kirib kelayotgan o'g'il qizlarimiz amal qilishlarini juda-juda istardim. Mana, ulug'

ajdodimiz nima deb yozganlar: “Xalqning aniq maqsad sari harakat qilishi, davlatmand bo‘lishi, baxtli bo‘lib izzat hurmat topishi yoki zaif bo‘lib xorlikka tushishi, baxtsizlik yukin tortishi, e‘tibordan qolib, o‘zgalarga tobe va qul bo‘lishi, asir bo‘lishi ularning o‘z ota-onalaridan bolalikda olgan tarbiyalariga bog‘liq”.

Endilikda oldimizda turgan eng muhim vazifa ... milliy g‘oyamizning uzviy tarkibiy qismlarini tashkil qiladigan komil inson, ijtimoiy hamkorlik, millatlararo totuvlik, dinlararo bag‘rikenglik kabi tamoyillarning mazmun-mohiyatini bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan ma‘naviy-ma‘rifiy, ta‘lim-tarbiyaviy ishlarning markaziga qo‘yish, ularni yangi bosqichga ko‘tarish, yosh avlodni har tomonlama mustaqil va tanqidiy fikrlaydigan yetuk dunyoqarash egalari qilib tarbiyalashdan iborat.

Komil inson tarbiyasi hamma davrlarda muhim ijtimoiy vazifa hisoblanib, yaxshi tarbiya ko‘rgan insonga jamiyat boyligi deb qaralgan. Inson ziynati u egallagan bilimi bilan o‘lchangan. Islom ta‘limotida bilimli insonlar yetuk deb sanalsa, mutafakkirlar qarashlarida komil inson bo‘lish uchun ko‘pgina xususiyatlarga ega bo‘lishni lozimligi o‘z aksini topganini ko‘rish mumkin. Komil insonni tarbiyalashda maktabda, oilada sog‘lom ma‘naviy muhit barqaror bo‘lishiga erishish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki sog‘lom muhit natijasida axloqiy fazilatlar tarkib topadi. Shaxs o‘z hayotida ma‘naviy-axloqiy kamolotga qanchalik intilsa, shunchalik o‘z kamchiliklarini anglab boradi.

Shu sababli, ta‘lim jarayoniga poliparadigmalar yondashuvni joriy etish va zamonaviy pedagogik texnologiyalar, xususan, klaster metodidan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Olib borilgan tadqiqotlar davomida quyidagi innovatsion metodlardan keng qo‘llanildi:

- nazariy tahlil (ilmiy adabiyotlarni o‘rganish),
- taqqoslash,
- pedagogik kuzatuv,
- tajriba-sinov ishlari,
- umumlashtirish.

Natija va muhokamalar.

Poliparadigmalar yondashuvning nazariy asoslari. Poliparadigmalar yondashuv ta‘limni bir nechta yondashuvlar integratsiyasi asosida tashkil etishni nazarda tutadi. U quyidagi paradigmalarning uyg‘unlashuvini o‘z ichiga oladi:

- **shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim** - umumta‘lim maktablari o‘quvchilarining individual rivojiga e‘tibor qaratadi;
- **kompetensiyaviy yondashuv** - bilimdan amaliy foydalanishga yo‘naltiriladi;
- **faoliyatga asoslangan yondashuv** - o‘rganishni faol jarayonga aylantiradi;
- **konstruktivistik yondashuv** - bilimni mustaqil qurish g‘oyasiga asoslanadi.

Bu yondashuvlar uyg‘unligi ta‘lim samaradorligini oshiradi va o‘quv jarayonini moslashuvchan shaklga olib keladi.

Kelajak soatlari variativ komponentlarining didaktik imkoniyatlari. Kelajak soatlari **variativ** komponentlari o‘quv dasturining moslashuvchan qismi bo‘lib, quyidagi vazifalarni bajaradi:

- umumta‘lim maktablari o‘quvchilarining qiziqishlarini hisobga olish;
- umumta‘lim maktablari o‘quvchilariga chuqurlashtirilgan bilim berish;
- umumta‘lim maktablari o‘quvchilarini kasbiy yo‘naltirishni ta‘minlash;
- mustaqil ta‘lim ko‘nikmalarini rivojlantirish.

Kelajak soatlarida bu komponentlar innovatsion metodlar orqali yanada samarali tashkil etilishi mumkin.

Klaster metodi - bu g'oyalarni grafik shaklda tizimlashtirish orqali o'rganish usuli bo'lib, u umumta'lim maktablari o'quvchilarining fikrlash jarayonini faollashtiradi.

assotsiativ fikrlashni rivojlantiradi;

bilimlarni tizimlashtiradi;

mavzular o'rtasidagi bog'liqlikni ochib beradi;

umumta'lim maktablari o'quvchilarini faol ishtirok etishga undaydi.

Klaster metodini qo'llash quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

Muammoni qo'yish,

Markaziy tushunchani aniqlash,

Erkin fikrlar generatsiyasi,

Guruhlash va tizimlashtirish,

Tahlil va xulosa chiqarish,

Poliparadigmal yondashuv asosida klaster metodini integratsiyalash jarayoni quyidagi natijalarga erishish imkoni beradi:

umumta'lim maktablari o'quvchilarining individual va jamoaviy faoliyati uyg'unlashadi;

refleksiv va tanqidiy fikrlash rivojlanadi;

fanlararo integratsiya kuchayadi.

Masalan, Kelajak soatlarining ko'pgina mavzulari bo'yicha klaster tuzishda umumatalim maktablari o'quvchilari kelajak soati bilan boshqa ijtimoiy fanlar orasidagi bog'liqlikni aniqlaydilar.

O'tkazilgan tajriba-sinov ishlari natijasida:

umumatalim maktablari o'quvchilarining darsga qiziqishi 25-30% ga oshdi;

mavzuni o'zlashtirish darajasi sezilarli yaxshilandi;

umumatalim maktablari o'quvchilarining mustaqil fikrlash ko'nikmalari rivojlandi.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, klaster metodini poliparadigmal yondashuv bilan uyg'unlashtirish o'quv jarayonini samarali tashkil etishga xizmat qiladi. Bu yondashuv umumatalim maktablari o'quvchilarining nafaqat bilim, balki kompetensiyalarini ham rivojlantiradi.

Xulosa.

Kelajak soatlarining variativ komponentlarini poliparadigmal yondashuv asosida didaktik ta'minotini takomillashtirish jarayonida poliparadigmal yondashuvni joriy etish, klaster metodidan samarali foydalanish ta'lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Ushbu yondashuv umumatalim maktablari o'quvchilarining kreativ, tanqidiy va mustaqil fikrlashini rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. – T.: O'zbekiston, 2017. – 592 b.
2. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. – T.: Fan, 2018.
3. Salomov G'.Yu. Umumta'lim maktablarining X-XI sinf o'quvchilariga sinf soatlarini invariant usulda o'tkazish texnologiyasi. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish

uchun yozilgan dissertatsiya. – Termiz.: TerDU, 2023.

4. Salomov G.Yu. Pedagogical principles of spiritual-moral education of students of X-XI grades in classroom hours. 2023. In Volume 2, Issue 7 of International scientific journal of “Science and Innovation”, 221-223. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8200183>.

5. Salomov G.Yu. Using the boomerang technology in conduct of classrooms in invariant method to high class students of university schools. 2024. Volume 05, Issue 10 Current Research Journal Of Pedagogics (ISSN -2767-3278) 02 Pages: 179-182. Crossref doi: <https://doi.org/10.37547/pedagogics-crjp-05-10-30>.

6. Salomov G.Yu. Class hours for high school students in the invariant method use of mosaic thermal work method in transfer. 2024. Volume 05, Issue 10 Current Research Journal Of Pedagogics (ISSN - 2767-3278) 02 Pages: 183-187. Crossref doi: <https://doi.org/10.37547/pedagogics-crjp-05-10-31>